

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Tohir Aripov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir o'tkazildi

Fanlar akademiyasida biofizika sohasidagi yetuk olim, akademik Aripov Tohir Fatixovich tavalludining 80 yilligi munosabati bilan Hukumat vakillari ishtirokida tantanali tadbir o'tkazildi.

Tadbirda akademiklar, taniqli davlat va jamoat arboblari, oliy ta'lim muassasalari vakillari, talabalar va olimning shogirdlari ishtirok etdi.

Tadbirni O'zR FA birinchi vitse-prezidenti-bosh ilmiy kotib, akademik Shomansur Sagdullayev tantanali tadbirni ochib berdi. U o'z nutqida so'nggi yillarda o'zbek ilm-faniga berilayotgan e'tibor haqida gapirib o'tdi.



Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisi Xayriddin Sultonov Davlatimiz Rahbarining tabrigini hamda akademikni ko'p yillik samarali mehnati, xususan, biofizika yo'nalishidagi fundamental tadqiqotlari bilan ko'plab muhim ixtirolar, ilg'or innovatsion g'oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qo'shgan katta hissasi, iqtidorli yosh olimlarni tayyorlash, navqiron avlodni vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tayyorlashdagi ibratli faoliyati hamda tavalludining 80 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan mukofotlanish to'g'risidagi Farmonini o'qib eshittirdi.





Tantanali tadbirda soʻzga chiqqanlar olimning ilmiy ishlari, oʻzbek ilm-faniga, biofizika sohasiga qoʻshgan hissasini alohida eʼtirof etishdi. Olimni qutlugʻ 80 yoshi hamda Davlatimiz Rahbarining yuksak mukofoti bilan qutladilar. Akademik T.Aripovga uzoq umr, mustahkam sogʻlik, ilmiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tiladilar.